

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi




**PUBLIC EDUCATION**  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2023**

**5-son**  
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X <sup>T</sup>		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
	<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>	
<b>A. Nasirov</b>	6	Umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)
<b>X. Ibraimov, F. Ibragimova</b>	12	Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida
<b>O. G'aniyev</b>	15	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti
<b>M. Umnova</b>	19	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiyalari
<b>Sh. Jo'rayev</b>	24	Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida
<b>J. Shukurllayev</b>	28	Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni
<b>D. To'rayeva</b>	31	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)
<b>G. Ibragimova</b>	35	O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar
<b>A. Suyunov</b>	38	Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari
	<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>	
<b>N. Yuldasheva</b>	42	Pedagogik jarayonda "o'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
<b>R. Eshimov, S. Israilov</b>	46	Umumta'lim maktablariga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida)
<b>Q. Muxammadiyev</b>	51	Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
<b>R. Ziyayev, M. Umarova</b>	54	Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish
<b>L. Mambetova</b>	58	Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslanishi
<b>O. Yusupov</b>	61	Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanini o'qitish metodikasi
	<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	
<b>G. Buvorayeva</b>	65	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida)
<b>B. Amirullayeva</b>	68	Tabiiy fan o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konstruktiv yondashuv

**Gulruh BUVORAYEVA,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrası o'qituvchisi

## **UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARINI UYG'UNLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI (Jismoniy tarbiya fani misolida)**

### **Annotatsiya**

---

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (jismoniy tarbiya fani misolida) haqida qisqacha mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkil etish va o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish kabi dolzarb masalalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Maktab, sifat, bilim, tarbiya, yoshlar, texnologiya, kompetensiya, pedagog, tizim.

В данной статье дается краткое изложение технологии гармонизации воспитательных компетенций учащихся в общеобразовательных школах (на примере науки о физическом воспитании). Также речь пойдет об актуальных вопросах правильной организации уроков физкультуры и научно-доказательной обоснованности развития физических качеств учащихся.

**Ключевые слова.** Школа, качество, знания, образование, молодежь, технологии, компетентность, педагог, система.

This article provides a summary of the technology of harmonization of educational competencies of students in secondary schools (using the example of the science of physical education). It will also focus on topical issues of the correct organization of physical education lessons and the scientific and evidence-based validity of the development of physical qualities of students.

**Key words.** School, quality, knowledge, education, youth, technology, competence, pedagogy, system.

**M**amlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o'quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko'zlamoqdalar.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Uzlüksiz ta'lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirilmoqda.

O'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo'llari va shart-sharoitlarini tadqiq etish muammosini o'rganilishi milliy tarbiya muamosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi. Jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkil etish va o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish kabi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari kam yoritilgan bo'lib, faqat yosh sportchilarni

yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ishlarga e'tibor qaratilgan. Jismoniy tarbiya darslarida kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar yetarli darajada emas. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining sifatini yaxshilash, maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish, sport turlarini rivojlantirish, ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash muhim hisoblanadi. Maktab yoshi harakatga o'rgatish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo'zgalishiga ega bo'ladilar va shunga ko'ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo'lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining rivojlanganligi me'yoriga yetadi. Maktabni tugallash davriga kelib o'quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo'ladilar. Bu o'z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda, turmushda, o'zlarining sog'ligini mustahkamlashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo'llay oladilar.

Darsni yuqori saviyada o'tkazish, dars davomida o'quvchilar faolligini taminlash, beriladigan vazifa, ko'rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg'otish o'qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Bunda asosiy e'tiborni ish qobiliyatini tez va to'liq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan e'tibor tezkorlik, tezkor-kuchlilik va maxsus chidamkorlikni (ayniqsa, sakrashda va zarbali harakatlarda) sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak.

O'rgatish uslublari yordamida, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, harakat qobiliyatlarini, irodaviy va ahloqiy sifatlarni rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Murabbiy mashg'ulotlarda u yoki bu harakat faoliyatini o'rgatadi, tushuntiradi va ko'rsatadi, shug'ullanuvchilar esa uni egallab oladilar. Mashg'ulotlarda o'rgatish uslublarini tanlashda, pedagogik vazifa, material mazmuni va o'quvchilar tayyorgarligini e'tiborga olish lozim. Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlari jaryonida asosan uchta o'rgatish uslublari mavjud, bular: so'z uslubi, ko'rgazmali uslub va amaliy uslublar. So'z va ko'rgazmalilik uslublari bevosita harakatlarni amalda qo'llash, ya'ni mashqlarni bajarish uchun zamin yaratadi. Barcha uslublar o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda kompleks qo'llaniladi.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni, shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik kompetensiyalar – bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni ham o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachilik uslubi boshqalarnikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning

---

ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib, ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Seminar – ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O'yinlarni modellashtirish – ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar quyidagicha qabul qilinadi.

Kollektiv – muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari; maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa – tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlari baholash mezonlarini quyidagicha taqdim etadi:

- umumiy bilim;
- kasbiy bilim, qobiliyat, ko'nikma;
- qiyin vaziyatdan chiqish qobiliyati, tezkorlik.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlardan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi – T.: O'z DJTI, 2005 y. – 300 b.
2. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlash-tirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005 y. – 235 b.
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. O'zDJTI, – T., 2005 y. – 171 b.
4. Юнусова Ю.М. Организация и методика физической культуры в общеобразовательных школах республики Узбекистана. – Т.: 2002. – С. 120.
5. Шохлих М. Круговая тренировка (Теоретические, методические и организационные основы одной из современных форм использования физических упражнений в школе и спортивной тренировке). - 2-е изд., стер. – М.: Спорт, 2021. – С. 217.